

## Yoshlar siyosati amalda

20-yanvar kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida Yoshlar ishlari agentligi Toshkent shahar boshqarmasi bilan hamkorlikda muhtaram Yurtboshimizning 2020-yil 29-dekabr kuni parlamentga yo'llagan murojaatnomasining mazmun-mohiyatini yoritib berish hamda yoshlarning siyosiy bilimlarini yanada oshirishga qaratilgan davra suhbat tashkil etildi. Prezident Murojaatnomasi barchamizning oldimizda turgan bir yillik maqsadlarimizga va amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlarga dasturulamal bo'lib xizmat qilishi tabiiy, ammo, bugungi uchrashuvning o'ziga xosligi shundaki, Murojaatnomaning mazmun-mohiyati avvalo, yoshlarga, keyin jamiyatning boshqa qatlamlariga singdirilib borilishi lozim degan maqsadda aynan yoshlar bilan tashkil qilindi. Uchrashuvni Institut yoshlar yetakchisi birinchi o'rinbosari Haytboy Iskandarov ochib berdi, uchrashuvda Yoshlar ishlari agentligi Toshkent shahar boshqarmasi bo'lim boshlig'i R. Anvarova, Mirzo Ulug'bek tumani boshqarmasi boshlig'i G'. Tolipov, Yoshlar ittifoqi Mirzo Ulug'bek tumani kengashi raisi N. Shukurov, Yoshlar parlamenti a'zosi O. Sobitovlar ishtirok etishdi.



O'zining tanqidiy-tahliliy chiqishlari bilan yoshlar orasida tanilgan, yoshlar sohasidagi islohotlarga o'zining hissasini qo'shib kelayotgan Otabek Sobitov Murojaatnomaning mazmun-mohiyatini sodda va tushunarli qilib barcha ishtirok etgan talabalarga yetkazib berdi. Murojaatnomada keltirib o'tilgan yoshlar hayotida amalga oshirilishi kutilayotgan ulkan o'zgarishlar va islohotlarga alohida to'xtalib o'tildi. Otabek Sobitovga talabalarimiz tomonidan yoshlar va ta'lim sohasidagi bir qancha savollar va takliflar bildirildi. Uchrashuvga tashrif buyurgan barcha mehmonlar talabalarimizga o'z tavsiya va maslahatlarini berib o'tishdi. Yakuniy so'z o'rnida Institut Yoshlar yetakchisi A. Berdimurodov ishtirok etgan talabalarga va yoshlarimizning siyosiy bilimlarini oshirishga hissalarini qo'shgan barcha mehmonlarga minnatdorchilik bildirib, uchrashuvga yakun yasadi.



TIQXMMI matbuot xizmati